



**Majidova Ziyoda Abdirauf Qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti*

*psixologiya yo'nalishi 112-ps 2024 guruh talabasi*

*EMAIL:majidovmuhridin447@gmail.com*

*TEL raqam:+998888188706*

**ANOTATSIYA:** *Ushbu maqolada falsafaning muhim sohalaridan biri bo'lgan jamiyat falsafasi ko'rib chiqilgan. Inson va jamiyatning o'zaro munosabatlari, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari hamda ijtimoiy tizimlarning tabiati haqida gap boradi.*

**KALIT SO'Z:** *Jamiyat, tabiat, sotsiologiya, madaniyat, munosabat, erkinlik.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье рассматривается общества, которая является одним из важных направлений философии. Речь идет о взаимодействии человека и общества, законах общественного развития и природе социальных систем.*

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** *Общество, природа, социология, культура, отношение, свобода.*

**ANOTATION:** *From important areas of philosophy in this article the philosophy of society, which is one, is considered. The relationship of mad and social development the laws as well as nature of social systems are discussed.*

**KEYWORD:** *Society, nature, sociology, culture, attitude, freedom.*

**KIRISH:** Jamiyat moddiy va ma'naviy omillar birligidan iborat. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Jamiyat - tabiatning bir qismi, ya'ni ijtimoiy borlik bulib, uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi, degan turlicha ta'riflar xam mujassam. Insoniyat azal-azaldan jamoa bulib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atashimiz mumkin. Jamiyat odamzodning umri, hayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini boshqarish, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda yordam bera oladi.

**ASOSIY QISM:** Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqiyos ahamiyatga ega. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga keldi. Kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlari, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish,





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish kabilar shular jumlasidandir. Ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui, moddiy boylik va tabiiy zaxira desak buladi. Jamiyatning ma'naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, g'oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy- huquqiy jihatlari ham muhimdir. Kishilar tamonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilani biz kichik jamiyat deyishimiz mumkin. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratini oshiradi. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Jamiyat kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarini kamol toptirish, o'z-o'zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro'yobga chiqarish maktabi hisoblanadi.

**XULOSA:** Jamiyat a'zolari bir-biri bilan iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarda bo'lib, bir-birini qo'llab- quvvatlaydi. Har bir jamiyat o'z qonunlariga va utf-odatlariga egadir. Jamiyat insoniyatning o'zaro birlashuvi va rivoji natijasida hosil bo'lgan murakkab tizim bo'lib, uning asosi insonlar o'rtasidagi hamkorlik va birgalikdagi tamoyillaridir. Insonlarning bir-birlariga bo'lgan ehtiyojlari va birgalikda yashash tamoyillari asosida tashkil topgan tizim hisoblanadi. Bu ijtimoiy hamkorlikka tayanadi, madaniy boyliklarni saqlaydi va o'zgarish orqali taraqqiyotga yo'l ochadi. Jamiyat insoniyatning jismoniy va ma'naviy hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlovchi muhim ijtimoiy munosabat hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Falsafa kursining ayrim masalalari (T. Sharipov tahriri ostida). — «Farg'ona», 1994.
2. Falsafa. — T., «Sharq», 1999.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloil va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992.
4. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 2000.

